

**O‘zbekiston**  
**Metama’lumot**  
**Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni**

Ishlab chiqilgan sana: 01.02.2020 yil

Oxirgi yangilangan sana: 22.09.2021 yil

## 0. Asoslar

### 0.1 Qonuniy asoslar

#### 0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi.

Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funktsiyalari va tarkibini aniqlab beradigan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida [Nizom](#)”ga muvofiq Davlat statistika qo‘mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas’ul, shuningdek ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

- statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;  
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

2017-yil 12-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to'g'ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

### **0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish**

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

### **0.1.3 Respondentlar individual ma'lumotlarining maxfiyligi**

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud

muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizomda, Davlat statistika qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish huquqiga ega ekanligi hamda olingan statistik ma'lumotlarning maxfiylikini va davlat sirlariga ega bo'lgan statistik ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

#### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

##### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Markaziy apparatda donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi axborotlarni shakllantirish ishlari 2 nafar, hududiy statistika boshqarmalarida – 1 nafar, tuman, shahar statistika bo'limlarida 1 nafar xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Umuman donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish uchun qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun xodimlar soni yetarli va xodimlar mos ko'nikmalarni saqlash va rivojlantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarishga layoqatli. Barcha xodimlar iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohasida oliy ma'lumotga ega.

Ko'nikmalarni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish muntazam ravishda mutaxassislar uchun Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar instituti taklif etiladigan kurslarda xodimlarni o'qitishga asoslangan.

Boshqarma yetarli miqdordagi kompyuterlarga ega bo'lib, har bir xodim alohida o'zlariga birlashtirib berilgan, lokal tarmoqqa ulangan, muntazam ravishda dasturiy ta'minot yangilanib turadigan kompyuterlarda ishlaydi.

Berilayotgan moliyaviy manbalar davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

## 1. Beg'arazlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy printsiplari, jumladan beg‘arazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo‘limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo‘ysunadi.

Mazkur statistik ma‘lumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yo‘l qo‘yilmagan va kasbiy mustaqillik to‘liq ta‘minlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi e‘tiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kurslari, o‘quv-amaliy seminarlarda ishtirokini ta‘minlash orqali ta‘minlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan o‘quv kurslarida ma‘ruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini e‘lon qilib borish tashkil etilgan.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta‘minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma‘lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni birlashtirish, ma‘lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog‘lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma‘lumotlar to‘plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma‘lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash

usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### 1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda (15-band) Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish hamda ular bo'yicha tushuntirishlar berish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra, Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

"Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy printsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Qo'mita rasmiy veb-saytiga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.lex.uz](http://www.lex.uz) manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Qo'mita rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Hukumat Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Qo'mita raisi, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

### 1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Davlat statistika qo'mitasi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

## 1.3. Axloq me'yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik printsipligiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konseptsiya va tushunchalar

#### 2.1.1 Konseptsiya va tushunchalar

Mazkur axborotlar choraklik va yillik asosda hisobga olish maqsadida shakllantiriladi.

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish uchun "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida hisobot", "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", "Mikrofirma va kichik korxonaning qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot" davlat statistika hisoboti statistik axborotlaridan foydalaniladi.

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni – jami don ekinlari, shu jumladan: boshqoli don ekinlari (shundan bug'doy, arpa, javdar), makkajo'xori don uchun, oq jo'xori, tariq, sulii, marjumak, sholi, dukkakli don ekinlari, shu jumladan no'xat, nut, mosh, loviya, yasmiq, burchoq bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni ko'rsatkichi davlat statistika hisobotlarida gektarda aks ettiriladi.

## 2.2 Statistik qamrov

### 2.2.1 Statistik qamrov

#### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyatni o'z ichiga oladi.

Xo'jaliklar qamrovi: fermer, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Ekin turlar qamrovi qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat statistika hisobotlarida keltirilgan.

#### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

--

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

## 2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

### 2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

--

## 2.4 Hisobga olish asoslari

### 2.4.1 Baholash

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan taqdim etiladigan qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha davlat statistika hisobotlari va tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

### 2.4.2 Hisobga olish asosi

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar davlat statistika organlariga yuridik shaxslar, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan taqdim etiladigan statistik kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

--

## 3. Aniqlilik va ishonchlilik

### 3.1 Birlamchi ma'lumotlar

#### 3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlarning shakllantirilishi uchun axborotlar manbai qishloq xo'jaligi bo'yicha mos birlamchi davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari hisoblanadi.

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun davlat statistika hisoboti asosida yilda uch marta shakllantiriladi.

#### 3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi statistik axborotlar fermer xo'jaliklari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yirik, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan davlat statistikasi organlariga taqdim etiladi.

#### 3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Axborotlarni tayyorlash qat'iy ravishda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yilda ikki marta tegishli yil iyul va yanvar oylarida, shuningdek ushbu ko'rsatkich bo'yicha yakuniy yilda bir marta shakllantiriladi.

Yillik ma'lumotlar 3 oydan ko'p bo'lmagan hisobot davridan keyin qayta ishlanadi.

### 3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

#### 3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Sub'ektlardan olingan ma'lumotlar nafaqat hududiy statistika boshqarmalari darajasida, balki Davlat statistika qo'mitasida muqarrar nazorat va tekshiruvlardan o'tadi. Axborotlarda xatoliklar aniqlangan hollarda albatta sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi.

### 3.3 Statistik usullar

#### 3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

#### 3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Ma'lumotlarga tuzatish kiritish va qayta ishlash asoslangan usullar yordamida amalga oshiriladi. Yakuniy ma'lumotlarni shakllantirishdan oldin dastlabki ma'lumotlarga tuzatishlar kiritiladi.



### **3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash**

#### **3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash**

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar oraliq ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

#### **3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash**

#### **3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish**

Chiquvchi statistik ma'lumotlardagi farqlar o'rganiladi, hisobot davridagi ma'lumotlarni o'tgan yil natijalari bilan solishtiriladi, jiddiy farqlar sabablari aniqlanadi va tahlil qilinadi.

### **3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili**

#### **3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish**

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yilda ikki marta tegishli yil iyul va yanvar oylarida, shuningdek ushbu ko'rsatkich bo'yicha yakuniy yilda bir marta shakllantiriladi.

Iyul, yanvar oylari uchun va yillik hisobot ma'lumotlari qayta ishlanadi, tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, zarur hollarda sub'ektlar bilan aniqlik kiritiladi, shuningdek Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda rasmiy ravishda chop etiladi.

## **4. Amaliy yaroqlilik**

### **4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi**

#### **4.1.1 Davriylik**

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risida ma'lumotlar yilda uch marta shakllantiriladi.

#### **4.1.2 O'z vaqtidaligi**

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi yillik ma'lumotlar hisobot davridan keyingi 3 oydan kechiktirmasdan, shuningdek yilda ikki marta - Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda chop etiladi.

### **4.2 Qiyosiylik**

#### **4.2.1 Ichki qiyosiylik**

Statistik ma'lumotlar ichki kelishilishi, vaqt bilan taqqoslanilishi bilan tavsiflanadi

## 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

Yetarli davrlar uchun ma'lumotlarning vaqt bilan qiyosiy davriy qatorlari mavjud donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi dinamika 1991 yildan boshlab shakllantiriladi.

## 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

## 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va chop etish Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilishi vaqtida foydalanuvchilarga ma'lumotlarning dastlabki ekanligi ma'lum qilinadi. Dastlabki ma'lumotlar nashr etilayotganda tegishli izohlar yoziladi.

### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar statistik byulleten, jadval va to'plamlar ko'rinishida tarqatiladi.

## 5. Qulayligi

## 5.1 Ma'lumotlar

### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Donli ekinlar ekilgan ekin maydoni to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar statistik jadval, yakuniy ma'lumotlar statistik byulleten ko'rinishida foydalanuvchilarga tarqatiladi.

### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

#### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Statistik ma'lumotlar chop etilgan shaklda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali tarqatiladi:

- «O'zbekiston raqamlarda»
- «O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami»
- «O'zbekiston qishloq xo'jaligi»

Bundan tashqari, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

#### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Mavjud emas.

#### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

Statistik jadval ko'rinishida mavjud.

#### 5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Jadvallar, foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Statistik ma'lumotlar har chorak yakuni bo'yicha qo'mitaning Ochiq ma'lumotlar portalida joylashtiriladi.

### 5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

--

### 5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

--

### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasi «Rasmiy statistikasi to'g'risida»gi Qonunga, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomga, statistik ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etish ishlarini tashkil etish Reglamentiga va boshqa me'yoriy hujjatlarga statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarning so'roviga asosan belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga asosan taqdim etish yo'li bilan chop etilgan yoki elektron jadvallar, statistik to'plamlar, byulletenlar, ekspress-axborotlar ko'rinishida, hamda tomonlarning axborot almashinuv to'g'risidagi kelishuviga asosan taqdim etiladi.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konseptiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Konsepsiya, statistik qamrov, tasniflar, hisob asoslari, ma'lumotlar manbai va statistik uslublar to'g'risidagi ma'lumotlar statistik byulletenlar hamda to'plamlarda asosiy ko'rsatkichlarga uslubiy tushuntirish ko'rinishida aks ettiriladi.

## 5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

### 5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat statistika hisobotlar shakllari takomillashtirildi.

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Qishloq xo'jaligi bo'yicha davlat statistika hisobotlar shakllarini takomillashtirish.

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta'minlangan.

#### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

Moliyalashtirish davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta'minlangan.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	G'ulomov Shovkat
Lavozim:	Boshqarma boshlig'i
Bo'linma:	Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi boshqarmasi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Manzil:	Mustaqillik 63
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	998-71-202-8051
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	<a href="mailto:selhoz@stat.uz">selhoz@stat.uz</a>